

**SO'X, ISFAYRAMSOY SOHILLARI VA KONUS YOYILMALARI AVTOMORF
SUG'ORILADIGAN KOLMATAJLANGAN TUPROQLARIGA TAVSIF**

Sotiboldiyeva Go'zalxon Tolibjonovna-b.f.f.d (PhD)

Iminchayev Raxmatjon Axmadovich

-oqituvchi Farg'ona davlat universiteti

Аннотация. *Мақоллада Со'х, Исфайрамсой соhillari va konus yoyilmalari avtomorf sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlariga tavsif keltirilgan bo'lib, har ikkala hudud tuproqlarida genegis vazifasini sug'orish suvlri bajaradi.*

Калит сўзлар: *tuproq, kolmataj, daryo, konus yoyilma, morfologiya, genezis, kesma*

Сотиболдиева Гузалхон Толтбжоноана-к.н.б.,

Иминчаев Рахмаджон Ахмадович-учитель

Ферганский государственный университет

Аннотация. *В статье описаны автоморфно-орошаемые коблимированные почвы Сохского, Исфайрамсойского побережий и конуса-веносах.*

Ключевые слова: *почва, кольматаж, река, конусное распространение, морфология, генезис, разрез.*

Sotiboldieva Go'zalxon Toltbjonoana -PhD,

Iminchayev Raxmatjon Axmadovich - teacher

Ferghana State University

Abstract. *The article describes the automorphically irrigated collimated soils of Sokh, Isfayramsoy coasts and cone plains.*

Keywords: *soil, colmatage, river, cone spread, morphology, genesis, section*

KIRISH.

Ma'lumki, tuproqni qattiq fazasi har xil kattalikdagi zarrachalardan iborat bo'lib, tuproq kesmasining chuqurligi tomon xilma-xil miqdorlarda tarqaladi. Asosan tuproq hosil bo'lish jarayonida onalik jinslardan hosil bo'ladi. Tuproq qatlamida tuproq hosil bo'lishi jarayonida oldindan mavjud bo'lmagan moddalar ham hosil bo'lishi mumkin. Tuproq shakllanish jarayonida o'ziga xos genetik qatlamlar ajraladi, bu xususiyat faqat tuproqqa xos bo'lib, ular alohida-alohida yoki o'xshash morfologik belgilarga ega bo'ladi.

Shunday qilib tuproqqa, uni hosil qiluvchi onalik jinslaridan o'zlarining morfologik belgilari va genetik qatlamlari bilan farq qiladi. Tuproqlar o'zaro ham ushbu ko'rsatkichlari orqali farq qiladi. Morfologik belgilariga qarab tuproq hosil bo'lish jarayoni yo'nalishini ham aniqlash mumkin [1-5].

ASOSIY QISM.

Tuproq morfologiyasi to'g'risidagi asosiy tasavvurlar V.V.Dokuchayev tomonidan berilgan bo'lib, asosiy morfologik belgilar qatoriga: tuproq tuzilishi, alohida qatlamlarning

qalinligi, rangi, mexanik tarkibi, yangi yaralmalari, qo'shilmalari va hokazolar kiritilgan. Odatdagi sharoitda quyidagi qatlamlar ajratiladi.

A - organik moddalar akkumulyatsiyasi qatlami;

B - illyuvial yoki o'tuvchi qatlam;

S - onalik jinsi;

D - onalik jinsi ostidagi tog' jinslari.

Albatta bulardan tashqari gleyli, gipsli, tuzli va boshqa qatlam hamda qatlamchalar ham ajratiladi. Barcha haydaladigan va sug'oriladigan tuproqlarda haydov va haydov osti qatlamlari (Ah; Ah-o) ajratiladi.

Albatta "B" qatlam ham ajratiladi. Ushbu qatlamda ko'pchilik tuproqlar kesmasida ularning o'zlashtirilganlik darajasiga qarab har xil miqdorda il zarrachalari akkumulyatsiyalanadi va profil uchun harakterli xususiyatlaridan birini tashkil qiladi. Bu holat asosan akkumulyativ qatlam deb nomlanadigan A qatlamdan il zarrachalarini quyi qatlam tomon harakati va akkumulyatsiyalanishi tufayli sodir bo'ladi [6-10]. Bunday jarayon aksariyat hollarda yosh tuproqlarni rivojlanishi, ya'ni o'zlashtirilgan davrlarning ortishida namoyon bo'ladi.

Tuproq kesmalari tabaqalangan, tabaqalanmagan va oraliq ko'rinishlarda bo'ladi. Demak differentsiyalanmagan kesma ko'rinishi boshidan to oxirigacha deyarli bir hil bo'ladi, bundaylarga voha tuproqlarini keltirish mumkin. Tabaqalangan kesmalarda xilma-xil qatlamlar yaqqol ajralib turadi. Ularda qayd etilganidek, ellyuvial qatlam, karbonatli, gipsli, gleyli, tuzli qatlamlar yoki mexanik tarkib bo'yicha keskin farqli qatlamlar ko'zga tashlanadi. Agar kesma (profil) kuchli differentsiyalangan bo'lsa, u holda unga ishlov berish, unda qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirish, yuqori hosil olish qiyinlashadi. Ko'p hollarda A qatlam u yoki bu darajada o'zining unumdorligini yo'qotadi. Masalan, yangi o'zlashtirilgan bo'z tuproqlar tezda o'zlarining A qatlamdagi gumusini 20% gacha miqdoridan ayiriladi. Gidromorf zonada arid iqlim mintaqasida sho'rlanadi va hokazo [11-16].

Arid iqlim mintaqasida shakllangan sug'oriladigan, kolmatajlangan tuproqlarda qatlamlarga tabaqalanish, ya'ni alohida-alohida qatlamlarni shakllanishi deyarli kuzatilmaydi, zichlik hisobiga haydov va haydov osti qatlamlarni ajratish hamda onalik jinslarini ajratish mumkin. Bunday holatni biz tadqiqot obyekti tuproqlarida, ya'ni sug'oriladigan, kolmatajlangan och tusli bo'z va sur tusli qo'ng'ir tuproqlar kamarida shakllangan tuproqlarda quyidagi keltirilgan kesmalarning morfologik belgilarini tavsifida ko'rishimiz mumkin.

Eskidan sug'oriladigan, kolmatajlangan yangi mexanik tarkibli, tosh-shag'allar ustida shakllangan och tusli bo'z tuproq.

Sariqo'rg'on, Qumbosdi yo'lidan Sharq tomon 150 m. Suyuncho'l qishlog'i "Malika" fermer xo'jaligi dala shiyponi oldidan Shimolga 130 m. g'o'za maydoni, chigit unib chiqqan ikki chinbarg holati [17-21].

1g kesma 11.05.2010 yilda olingan va tavsiflangan.

Ah 0-36 sm.

Ah-o 36-45 sm.

Haydov osti qatlam keskin ajralmagan och bo'z rang bo'lib, nam holatdaligi tufayli ustki qatlamdan to'qroq ko'rinishga ega, namligi yuqori mushtlanishi ham mumkin, zich, o'rta va yengil qumoq, strukturasis va mayda donali strukturaga ega, yakka

hollarda ildizchalar uchraydi, ko'milgan o'simliklar qoldig'i ham uchraydi, yangi yaralmalar yaqqol ko'rinmaydi, keyingi qatlamga o'tish jarayoni mexanik tarkibi va namligiga ko'ra.

B 45-66 sm. Nam holatda bo'z rang, kuchsiz loylandi, o'rta qumoq, zich, ildizlar mavjud, yaltiroq dog'larni ko'rish mumkin, keyingi qatlamga o'tish jarayoni mexanik tarkibiga ko'ra.

C 66-100 sm. Och bo'z rang, namligi yuqoriga nisbatan kuchli, kuchsiz loylandi, o'rta va yengil qumoq, qum qatlamchalar mavjud, uning tagida tosh va shag'allar yotadi. Sizot suvlari chuqurda, tuproqni paydo bo'lish jarayonida ishtirok etmaydi.

Quvasoy shahri yaqinidagi Arsif qishlog'i, "Nurmatov Rahmatjon" fermer xo'jaligi yerlari. Yangidan sug'oriladigan och tusli kolmatajlangan, yengil qumoq 0,5-0,6 m chuqurlikdagi tosh-shag'allar ustida shakllangan och tusli bo'z tuproq.

5g kesma, 14.05.2010 yili olingan va tasniflangan.

Ah 0-21 sm. Och bo'z rangli, bevosita yuzasi quruq, og'ir mexanik tarkibli, lekin qum va shag'allar ko'rinadi, donador strukturali, zichlangan, o'tgan yilgi va shu yilgi ildizlar ko'rinib turibdi, jonivorlar bilan kuchsiz ishlanganini ko'rish mumkin, oq va oqish karbonatli dog'lar qatlamning quyi qismida mavjud, qo'shilmalar yo'q, keyingi qatlamga o'tish mexanik tarkibiga ko'ra.

Ah-o 21-36 sm. Och bo'z rang, quruq, o'ta zich, o'rta qumoq, tosh va shag'allar aralashmasi ko'p. Karbonatli dog'lar mavjud, o'tgan yillar va joriy yildan ildizlar mavjud, jonivorlar bilan kuchsiz ishlanganligini ko'rish mumkin, tosh va shag'allarni jadal nurayotgan holatini ko'rish mumkin, qatlamning quyi qismlarida gillanish holatini ko'rish mumkin, keyingi qatlamga o'tish xususiyati mexanik tarkibiga ko'ra.

BC 36-45 sm. Och bo'z rangli, yengil mexanik tarkibli, ya'ni tosh va shag'alli qatlam, quyi tomon kesmani chuqurlashtirish juda qiyin kechadi, sabab qayd etilganidek, prolyuvial-allyuvial yotqiziqlardan iborat zich qatlam mavjud. Sizot suvi chuqurda, tuproq hosil bo'lishi jarayonida qatnashmaydi.

Sug'oriladigan kolmatajlangan tuproqlarning morfologik belgilaridan ko'rinib turibdiki, ularda qo'shilmalar, ya'ni chinmi sopol va boshqa ro'zg'or buyumlari, g'isht bo'laklari yo'q, shu bois ularni sug'oriladigan, kolmatajlangan och tusli bo'z tuproq va sug'oriladigan, kolmatajlangan sur tusli qo'ng'ir tuproqlar deb atash maqsadga muvofiq.

Ularni agroirrigatsion keltirilmalarining qalinligi 45-100 sm oralig'ida tebranadi, demak Qo'ziyev R.Q. tavsiya etgan tasnifga ko'ra agroirrigatsion keltirilmalardan tashkil topgan qatlam qalinligiga ko'ra 1-kesma tuproqg'ri 100 sm atrofidagi qatlamga ega, ular o'rta qalin, 5-kesma tuproqlari qatlam qalinligi onalik jinlarigacha 45 sm ni tashkil qiladi va yupqa qalinli turlarga bo'linadi.

Ushbu morfologik belgilaridan ko'rinib turibdiki birinchi kesma tuproqlari, aniqrog'i yerlari nisbatan ko'proq yillar davomida sug'oriladi, aslida ushbu maydondagi och tusli bo'z tuproqlar qalinligi juda kichik bo'lgan, tosh-shag'llar ustida shakllangan. Shu bois bo'lsa kerak ularning morfologik belgilarida och tusli bo'z tuproqqa xos asosiy belgilar ko'rinmaydi [22-27].

5-kesma bundan istisno, ya'ni u yangidan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar maydonida sug'orishlar natijasida shakllangan. Ularda bo'z tuproqlarga xos ayrim xususiyatlarni ko'rish mumkin. Masalan, 21-36 sm dan agroirrigatsion keltirilmalar bilan

aralashgan holda bu tuproqlarni onalik jinslari hisoblangan tosh-shag'allarni aralashuvini ko'rish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur holat bu maydonda sug'orma dehqonchilikning unchalik uzoq vaqt davom etmaganligidan darak beradi. Ayni bir paytda bu tuproqlarda haydov osti qatlami ham hali o'ziga xos xususiyatlari bilan to'la shakllanmagan. Sug'oriladigan, kolmatajlangan sur tusli qo'ng'ir tuproqlarda esa sur-tusli qo'ng'ir rangli qatlam batamom yo'qolib ketgan. Eskidan sug'oriladigan, kolmatajlangan och tusli bo'z tuproqlarda esa karbonatli illyuvial qatlam ko'rinmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Yuldashev, G., & Sotiboldieva, G. (2015). Formation of the absorbed foundations of the irrigated gray-brown soils of the Sokhsky cone of carrying out. *Europaische Fachhochschule*, (5), 3-6.

2. Юлдашев Ф, С. Г. (2015). Кольматажланган тупроқларда стронций ва барий. *УзМУ хабарлари*, 3(2), 138-143.

3. Сотиболдиева, Г., & Абдуллаева, Л. (2020). Сух ва Исфайрамсой дарё ёйилмаларида шаклланган сугориладиган кольматажланган тупроқларнинг галогенетик хусусиятларини тавсифи. *Илм-фан ва таълимнинг ривожланиш истикболлари мавзусидаги илмий канфренция туплами*. www.openscience.uz, 27, 309-313.

4. Юлдашев, Г., Исагалиев, М., Сотиболдиева, Г., & Турдалиев, А. **БИОМИКРОЭЛЕМЕНТЫ В АГРОЛАНДШАФТАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНЫ. СЕМИНАР–КРУГЛЫЙ СТОЛ 6. ПРИЁМЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ПОЧВЕННОГО ПЛОДОРОДИЯ И ОХРАНА ПОЧВЕННЫХ РЕСУРСОВ**, 409.

5. Toshmirzayeva, G., & Sotiboldiyeva, G. (2021, July). **LIGHT GRAY AND TYPICAL GRAY SOILS OF UCHKURGAN DISTRICT**. In *Конференции*.

6. Sotiboldiyeva, G. T. (2018). *Farg 'ona viloyati kolmatajlangan tuproqlarining biogeokimyoviy xususiyatlari va ulardan foydalanish*. Diss. bffd-Toshkent, 31-42.

7. Yuldashev, G., & Sotiboldiyeva, G. (2021). **BIOGEOCHEMISTRY OF SELENIUM AND ARSENIC IN AGRICULTURAL LANDSCAPES**: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1363>. In **RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06)**.

8. Сотиболдиева, Г. Т. (2018). *Фаргона вилояти кольматажланган тупроқларининг биогеохимёвий хусусиятлари ва улардан фойдаланиш*.: дисс. Автореф. б. ф. ф. д.(PhD)-Т.

9. Sotiboldieva, G. T., & Yuldashev, G. Y. (2014). **POLLUTION OF IRRIGATED SOILS IN THE SEROZEM ZONE BY RADIONUCLIDES**. *The Way of Science*, 33.

10. Турдалиев, А., & Сотиболдиева, Г. *Агрохимические свойства трудномелиорируемых почв Ферганы*.

11. Юлдашев, Г., Холдарова, М., Исагалиев, М., Турдалиев, А., & Сотиболдиева, Г. (2013). Агрехимические свойства трудномелиорируемых почв Ферганы. Аграрный вестник Урала, (3 (109)), 16-17.
12. Юлдашев, Г., Исагалиев, М., Аскарлов, Х., & Сотиболдиева, Г. (2016). Агрехифические свойства бурых горно-лесных почв Западной Ферганы. Почвоведение-продовольственной и экологической безопасности страны, 397-398.
13. Sotiboldiyeva Go'zalxon Tolibjonovna. TUPROQSHUNOSLIK YO 'NALISHI TALABALARI UCHUN MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKILLASH METODIKASI. World of Science. 2023/4/20. 142-14
14. Sotiboldiyeva, G. (2023). KOLMATAJLANGAN SUR TUSLI QO 'NGIR TUPROQ VA GRUNTLARNING MEXANIK TARKIBI. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 834-838.
15. Tolibjonovna, S. G. Z. (2023). TUPROQSHUNOSLIK YO 'NALISHI TALABALARI UCHUN MALAKAVIY AMALIYOTINI TASHKILLASH METODIKASI. World of Science, 6(4), 142-145.
16. Go'zalxon, S., & Ma'rufjonov Javohirbek, S. D. (2023, February). KALIYLI O'GITLAR KONLARI HAMDA UNING AHAMIYATI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 2, pp. 91-93).
17. Turdaliev, A., Askarov, K., Abakumov, E., Makhkamov, E., Rahmatullayev, G., Mamajonov, G., ... & Axunov, A. (2023). Biogeochemical State of Salinized Irrigated Soils of Central Fergana (Uzbekistan, Central Asia). Applied Sciences, 13(10), 6188.
18. Г.Юлдашев, & Г.Сотиболдиева. (2023). ИСТОЧНИКИ ЭНЕРГИИ ПОЧВООБРАЗОВАНИЯ. Scientific Journal of the Fergana State University, (2), 7. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss2/a7
19. Г.Юлдашев, & Г.Сотиболдиева. (2019). Суғориладиган оч тусли бўз тупроқлар агрохимёвий хоссаларини ўзгариши. Scientific Journal of the Fergana State University,
20. Sotiboldiyeva, G., Isomiddinov, Z., Topkanova, E., Toxirova, M., & Solijonova, D. (2022). КОЛЬМАТАЖЛАНГАН СУР-ТУСЛИ ҚЎНФИР ТУПРОҚЛАРДА КАМЁБ КИМЁВИЙ ЭЛЕМЕНТЛАРНИНГ БИОГЕОКИМЁСИ. Science and innovation, 1(D8), 594-599.
21. Гўзалхон Толибжоновна Сотиболдиева. . (2023).Суғориладиган кольматажланган оч тусли бўз тупроқларда камёб элементларнинг геокимёвий хусусиятлари. Educational Research in Universal Sciences 2 (12), 305-309
22. Abakumov, E., Yuldashev, G., Mirzayev, U., Isagaliev, M., Sotiboldiyeva, G., Makhramhujaev, S., ... & Nizamutdinov, T. (2023). The Current State of Irrigated Soils in the Central Fergana Desert under the Effect of Anthropogenic Factors. Geosciences, 13(3), 90.
23. Yuldashev, G., Azimov, Z., & Mamajonov, I. (2023). Changes in Cyclic Chemical Elements in Saline Landscape. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 38-42./ze

24. Yuldashev, G., Azimov, Z., & Mamajonov, I. (2023). IKKILAMCHI SHO 'RXOKLAR MORFOLOGIYASI, SHAKLLANISHI, TUZ TARKIBI VA EVOLYUTSIYASI. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 858-862.

25. Azimov, Z., Nematov, A. A., & Madaminov, A. A. (2023). MARKAZIY FARG 'ONA YERLARIDA ARIDLANISH JARAYONIGA DOIR. Science and innovation, 2(Special Issue 6), 792-797.

26. Иминчаев Р.А. “Ўсимлик қолдиқларидан ноанънавий ўғит тайёрлаш усуллари ва шароитлари”. Educational Research in Universal Sciences, 2/(12), 310-314. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4118>.

27. Iminchayev R.A., Ma'rufjonov J.G'. “Janubiy farg'onaning och bo'z uproqlarining kimyoviy tarkibi hamda mikroo'g'itlardan qishloq xo'jaligida foydalanish”. JISER International multidisciplinary scientific journal. Volume 6, Issue 4. (30-aprel).